



TEXNIKA FANLARINI O‘QITISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINI TEXNOLOGIYALARNING AHAMIYATI

R. B. Batirova

Farg’ona Texnika Davlat Universiteti assistenti

Respublikamiz oliy ta’lim muassasalarida ta’lim jarayonini samarali tashkil etish va bulajak mutaxassislarni zaruriy bilim, ko’nikma va malakalarini yuksak darajada shakllantirish uchun o’qitishni kompetentli yondashuv asosida yanada takomillashtirish bugungi kunning dolzarb muammolaridan biri sanaladi.

2021 yil 1-fevralga qadar Institut va hududiy markazlarni yuqori ma’lakali axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish ko’nikmalariga hamda ilmiy salohiyat va amaliy ish tajribasiga ega bo’lgan mutaxassislar bilan to’ldirish borasidagi qaroriga asosan ta’lim tizimida ma’lakali axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish keng yo’lga qo’yildi.[1] «Texnika fanlari ta’lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to’g’risida»gi qaror hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda kuyida keltiradigan tezis ma’lum bir darajada xizmat qiladi.

Xozirda fan texnika tarakkiyoti rivojlangan bir davrda texnika fanlarini o’qitish dolzarbligi va zaruratidan kelib chikib ta’lim tizimida axborot texnologiyalarini qo’llash, virtual laboratoriya mashg’ulotlarini ko’paytirish, ta’lim oluvchi(talaba)larning ilmiy dunyoqarashlarini kompetentlik darajasida shakllantirish, kompetentli ta’lim kontseptsiyasiga asoslangan o’qitish metodikasini, jumladan, virtual shaklda yoki komp’yuter animatsiyalari va innovatsion pedagogik texnologiyalar yordamida o’qitishni takomillashtirishni taqozo etmoqda. Shu o’rinda texnologiya va pedagogik texnologiya tushunchalariga berilgan ta’riflarni keltirib o’tsak:

Texnologiya – biror ishda, mahoratda, san’atda qo’llaniladigan usullar, yo’llar yig’indisi [2]. Pedagogik texnologiya – texnika resurslari, odamlar va ularning o’zaro ta’sirini hisobga olgan holda ta’lim shakllarini optimallashtirish vazifasini qo’yuvchi o’qitish va bilimlarni o’zlashtirishning jarayonlarini yaratish, qo’llash va aniqlashning tizimli metodi (YuNESKO) [1]. Axborot texnologiyalari bu o’qitishga



International Educators Conference

Hosted online from Toronto, Canada

Website: econfseries.com

7th October, 2025

o'ziga xos yangicha (innovatsion) yondoshuvdir. U pedagogikadagi ijtmioiy – muxandislik tafakko'ring ifodalanishi, texnokratik ilmiy ongning pedagogika sohasiga ko'chirilgan tasviri, ta'lim jarayonining muayyan standartlashuvi xisoblanadi (B.L.Farberman) [3]. Yuqorida keltirilgan ta'riflardan ko'rinib turibdiki, bu tushunchalar juda keng kamrovli tushunchalardir Chunki, har bir darsda yoki tarbiyaviy tadbirda alohida tipdagi maqsad qo'yish va bu maqsadga erishish texnologiyasiga ham o'ziga xos ta'rif berish mumkin. Talabalarning ko'pchiligi Texnika fanlarini o'zlashtirishga qiynaladilar. Talabalarning Texnika fanlarini o'zlashtirish samaradorligi yuqori bo'lishi uchun mashg'ulot jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari hamda pedagogic texnologiyalardan foydalanish sifatli ta'lim samaradorligini ta'minlaydi hamda pedagogik texnologiya asosida loyixalashtirilgan dars jarayonining mezonlarini esa quyidagilarda ko'rish mumkin:

- Kontseptuallik (ma'lum ilmiy asosga, kontseptsiyaga tayanish).
- Pedagog ya'ni ta'lim beruvchi tomonidan puxta ishlab chikilgan o'quv jarayoni va uning tarkibiy qismlarining o'zaro mantiqiy bog'liqligi bir so'z bilan ifodalanganda sistemalilik.
- Boshqaruvchanlik (tashxislanuvchi maqsadlarni qo'yilganligi, ta'lim jarayonining loyixalanganligi bosqichma – bosqich tashxislashning va zarur tuzatishlar kiritishning ta'minlanganligi).
- Ta'lim standartlari talablariga erishishning kafolatlanganligi – vaqt, kuch va vositalarning optimalligi ya'ni samaradorlik.
- Bir ta'lim beruvchi tomonidan foydalanilgan pedagogik texnologiya boshka pedagoglar tomonidan qayta kullanilishi.


Ta'lim beruvchi tomonidan olib borilayotgan mashg'ulot turli ta'lim metodlari asosida bo'lishi mumkin bunga misol qilib quyida Ta'lim metodini keltiramiz:

International Educators Conference

Hosted online from Toronto, Canada

Website: econfseries.com

7th October, 2025



Hozirgi kunda texnika va dasturlash sohasida tub o'zgarishlarga olib kelgan rivojlanishlar tufayli, ilm olish va ilm berish sohalarida ham butunlay yangi, innovatsion texnologiyalardan foydalanish imkoniyati paydo bo'ldi. Ta'lim muassasalarida texnika fanlarini yanada chuqurroq o'rgatish va o'qitish kuchayib borayotgani bejiz emas. Shunday ekan ta'lim beruvchi(O'qituvchi) axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va pedagogik texnologiyalarga asoslangan va innovatsiyalardan ham foydalangan holda sifatli darslarni tashkil qilishga ma'sul. Axborot- kommunikatsiya texnologiyalardan foydalanib texnika fanlarini o'qitishdan maqsad talabalarning ilmiy dunyoqarashini kompetentlik darajada shakllantirish metodikasini takomillashtirishdan iborat. Texnika fanlarini o'qitishda Axborot-kommunikatsiya texnologiyalardan foydalanib quyidagi natijalarga erishamiz; o'rganilayotgan mavzuni tasavvur qilishlari yuqori darajada bo'ladi, amaliyotda bajarish imkoniyati cheklangan laboratoriyalarni virtual laboratoriya shaklda o'zlashtirish, talabalarning fikrlash faoliyatini va shaxsiy xususiyatlarini yaxshi bilish, o'qitishning samaraliroq usullarini topish. O'qitishni nafaqat o'qitiladigan fan mantiqiga, balki shaxsning rivojlanishi mantiqiga muvofiq holda tashkil yetishga imkon beradi. Talabaning yaratuvchilik (ijodiy potension) qobiliyati, uning muloqot



International Educators Conference

Hosted online from Toronto, Canada

Website: econfseries.com

7th October, 2025

qila olish qobiliyatini, ta'lim olish madaniyatini, ta'lim jarayonining barcha bosqichlarida samaradorlik va sifatni oshirishda axborotlashgan jamiyat qurish orqali ijtimoiy jamiyat buyurtmasini bajarishini va shu kabi jarayonlarni rivojlantirishdagi optimal variantlarni tanlashda istiqbolli natijalarni qo'lga kiritishni kafolatlaydi va faol ta'lim jarayonini amalga oshiriladi. Faol ta'lim sharoitida o'zlashtirilgan bilim va harakat usullari mazmunan mukammal tizim hisoblanadi hamda zamonaviy pedagogik texnologiyalar ta'lim jarayoning unumdorligini oshiribgina qolmay o'quvchilarning mustaqil firlash malakasini oshiradi. Shuning uchun ham o'quv jarayoniga pedagogik yangiliklarni kiritish, ta'limda pedagogik texnologiyalarni qo'llash, turli innovatsion usul va metodlaridan axborot texnologiyalaridan foydalanish, ta'lim sifatini oshirish bugungi kunning dolzarb mavzusiga aylandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. Tosh-kent: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2006.
2. Равшан Иш мухамедов, М аксуджон Ю лдашев Тиаълм ва тарбияда инновацион педагогик технологиялар Тошкент 2013
3. Polvonov Satimboy Rajapovich, Bozorov Erkin Xojiyevich, Kanokov Zakirjon, Atom yadrosi va elementar zarralar fizikasi t oshkent «g o to pr in t » 2020
4. <https://mt.bimm.uz>. Kredit-modul tizimi asosida ta'lim jarayonlarini tashkil etish. Oliy ta'lim professor o'qituvchilari uchun masofaviy kurslar. 4. Dadamirzayev G'., Vahobova S. Modulli ta'lim mustaqil ish uchun maqsadga erishish vositasi sifatida.
5. file:///C:/Users/Kodirov-5950/Downloads/zamonaviy-fizika-talimi-mazmuni-va-tarkibiy-tuzilishi-muammolari-a-ida%20(3).pdf